

HUJJATCHILIK TARIXI. SHARQ HUJJATCHILIGI

Xakimova Farida Ilhom qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, ilmiy rahbar

Xolniyozova Dinora Foziljon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

E-mail: nnilufarnamozova06@gmail.com, Tel:771866406

Namozova Nilufar To'lqin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabas

E-mail: dinaraxolniyozova@gmail.com ,

Tel:949080118

Annotatsiya: Ushbu tezisda hujjatchilik tarixi, hujjatlarning hayotimizdag'i o'rni, Sharq hujjatchiligi haqida ma'lumot beriladi. Qadimgi hujjatlar, ularning yuritilish tarixi haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Ushbu tezisda hujjatlar tarixi haqida ma'lumot, hujjatlarning ilk paydo bo'lgani haqida faktlar ko'rsatilgan. Aslida hujjatlar qanday paydo bo'lgani yoritilgan.

Kalit so'zlar :yorliq, farmon, noma, bitimlar, arznama, qarznama, tilxat

Аннотация: В данной диссертации представлены сведения об истории документации, роли документов в нашей жизни и восточной документации. Даны краткие сведения о древних документах и их истории. В данной диссертации представлены сведения об истории документов, факты о первом появлении документов. Фактически объясняется, как появились документы.

Ключевые слова: этикетка, постановление, наименование, операции, заявление, кредит, расписка.

Abstract: This thesis provides information about the history of documentation, the role of documents in our lives, and Eastern documentation. Brief information about ancient documents and their history is provided. This thesis provides information about the history of documents, facts about the first appearance of documents. In fact, how documents appeared is explained.

Keywords: label, decree, letter, transactions, petition, loan, receipt

Kirish. Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Biron-bir korxona, muassasa yoki tashkilotning faoliyatini bugungi kunda ana shu hujjatlarsiz mutlaqo tasavvur qilish mumkin emas. Munosabatlardagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat'iy qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar. Ana shu ehtiyojlarga javob sifatida tabiiyki, ilk ibridoiy hujjatlar yuzaga kelgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarning almashina borishi

aniqrog'i, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning ta komillasha borishi barobarida hujjatlar ham takomillashib borgan. Shoh Ur-Nammuning qonunlari va boshqa manbalarning mavjudligi "hujjatlar" deb ataladigan tartibot vositalarining nechog'lik olis va murakkab tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, Bobilning shohi Hammurapiningadolatpesha qonunlari ham katta bir tarixga ega.

Sharqda X-XIX asrlarda yorliq, farmon, noma, bitimlar, arznama, qarznama, vasiqa, tilxat yoki mazmunan shunga yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqalgan. Yorliqlar mazmunan xilma-xil bo'lган: xabar, tavsif, farmoyish, bildirish, tasdiqlash va boshqalar. Qadimda yorliqlarni yozayotganlarda «so'zim» deb boshlaganlar. Lisoniy qoliplar shakllangan. Malasan, yorliqlarning birinchisi – «To'xtamish so'zim Yag'aylaga» deb, ikkinchisi esa – «Termur Qutlug' so'zim» deb boshlangan. Yorliq – bu hujjat, tovar yoki mahsulotga qo'shilgan, uning tarkibi, sifati, ishlab chiqarish sanasi, ishlab chiqaruvchisi va boshqa ma'lumotlarni ko'rsatib beruvchi belgidir.

Bugungi kunda fanga tariximizning turli davrlarida o'rxun-enasoy, sug'd, eski uyg'ur, arab va boshqa yozuvlarda bitilgan juda ko'plab hujjatlar, umuman, yozma manbalar ma'lum.

Hujjatlar insoniyat tarixida axborotlarni yozib olish, saqlash va uzatish maqsadida yaratilgan. Ular jamiyat taraqqiyotining muhim bir qismi hisoblanadi va qadim zamonlardan buyon turli shakllarda mavjud bo'lgan. Masalan:

- "Noma – yozma xabar yoki axborot uzatish shakli bo'lib, ko'pincha rasmiy yoki norasmiy xatlar sifatida qo'llaniladi. U insoniyat tarixida yozuv paydo bo'lgan dastlabki davrlardan boshlab aloqa va axborot almashishning muhim vositasi"¹ bo'lib kelgan.

Arznama — bu kimdir o'zining muammo, shikoyat yoki iltimosini bayon qilib, rasmiy tartibda yozadigan hujjat yoki murojaat shaklidir. Arznama davlat organlari, sudlar, tashkilotlar yoki shaxslar tomonidan muayyan masalani ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

- Farmon — davlat rahbari tomonidan chiqariladigan, yuridik kuchga ega bo'lgan rasmiy hujjatdir.

- Bitim – bu ikki yoki undan ortiq tomon o'rtasida muayyan majburiyatlarni bajarish va huquqlarni amalga oshirish maqsadida tuziladigan huquqiy kelishuvdir.

Sharq hujjatchiligi – bu Sharq mamlakatlarida (Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Hindiston, Xitoy va boshqalar) rivojlangan hujjat yuritish va yozma aloqa madaniyat. Bu tizim qadim zamonlardan boshlab davlat boshqaruvi, huquqiy munosabatlar, ilm-fan, din va madaniyatni rivojlantirishda muhim o'rinn tutgan. Sharq hujjatchiligi o'zining estetik va huquqiy ahamiyati bilan, nafaqat, o'sha davrda, balki bugungi kunda ham madaniy va tarixiy ahamiyatga ega.

Hujjatchilik tarixi jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Sharq hujjatchiligi esa bu rivojlanishning boy va takrorlanmas qismi bo'lib, u nafaqat tarixiy ma'lumotlarni saqlab qolgan, balki madaniyat, ilm-fan va san'atga ham ulkan hissa qo'shgan. Bu meros bugungi kunda ham Sharq xalqlarining milliy o'zligini va tarixiy qadriyatlarini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov. Davlat tilida ish yuritish.-Toshkent: Amaliy qo'llanma, 2020.